"YASHIL" XIZMAT KO'RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISH: SOLIQ SIYOSATI VA DAVLAT BOSHQARUVI JIHATIDAN TAHLIL.....	1333
<i>Haqnazarova Yulduz Juraqulovna</i>	
ТРАНСПОРТНАЯ ДОСТУПНОСТЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РАЙОНОВ	1339
<i>Кеунимжаев Мухамедали Куанышбаевич</i>	
TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	1344
<i>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</i>	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQININING ILMIY TAHLILI.....	1350
<i>Ro'ziqulov Shunqor Tohir o'g'li</i>	
BANKLARNING QO'SHILISH VA QO'SHIB OLIH OPERATSIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	1356
<i>Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi</i>	
RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	1361
<i>Umurzak Ablakulovich Radjabov</i>	



ISHLAB CHIQRADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI	1366
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	



ISHLAB CHIQRADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNINI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI

Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich

Andijon davlat texnika instituti "Iqtisodiyot" kafedrasida doktoranti (DSc)

e-mail: mallaboyevanvarjon@gmail.com,

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqaradigan sanoatning iqtisodiyotdagi o'rnini, iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi ahamiyati hamda uni texnologik intensivligiga ko'ra tasniflashning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlari tizimli tahlil qilingan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo'limi (United Nations Statistics Division – UNSD) tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro sanoat standart tasnifi (International Standard Industrial Classification – ISIC) va Xalqaro savdo standart tasnifi (Standard International Trade Classification – SITC), Jahon bojxona tashkiloti (World Customs Organization – WCO) tomonidan ishlab chiqilgan Tovarlarini tavsiflash va kodlashning uyg'unlashtirilgan tizimi (Harmonized Commodity Description and Coding System – HS), shuningdek iqtisodchi olim S. Lall tomonidan taklif etilgan ishlab chiqaradigan sanoat eksport mahsulotlarini texnologik intensivligiga ko'ra tasniflash yondashuvi mazmunan qiyosiy o'rganilgan.

Ushbu xalqaro tasniflagichlar hamda O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT) o'rtasidagi metodologik muvofiqlik va ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibini baholash imkoniyatlari ochib berilgan. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda mazkur metodologik yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Maqola sanoat siyosati samaradorligini baholash, yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish modelini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: globalashuv, ishlab chiqaradigan sanoat, iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik, ISIC, IFUT, SITC, HS, texnologiya, innovatsiya, qo'shilgan qiymat, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), eksport.

Abstract. The article provides a systematic analysis of the role of the manufacturing industry in the economy, its importance in ensuring economic growth and competitiveness, and the scientific-theoretical and methodological aspects of classification according to technological intensity. The International Standard Industrial Classification of All Economic Activities (ISIC) and the Standard International Trade Classification (SITC) developed by the United Nations Statistics Division (UNSD), the Harmonized Commodity Description and Coding System (HS) developed by the World Customs Organization (WCO), and the classification of manufacturing export products by technological intensity proposed by S. Lall are examined in a substantive and comparative manner.

The methodological compatibility of these international classification systems with the National Classifier of Types of Economic Activities of the Republic of Uzbekistan (IFUT) is demonstrated, and the possibilities for assessing the technological structure of the manufacturing industry are revealed. Furthermore, the significance of applying these methodological approaches to enhance national economic competitiveness is substantiated. The article has scientific and practical relevance for evaluating industrial policy effectiveness, designing state programs for high-technology sector development, and improving the export-oriented model of economic growth.

Key words: globalization, manufacturing industry, economic growth, competitiveness, ISIC, IFUT, SITC, HS, technology, innovation, value added, research and development (R&D), exports.

Аннотация. В статье проведён системный анализ роли обрабатывающей промышленности в экономике, её значения для обеспечения экономического роста и конкурентоспособности, а также научно-теоретических и методологических аспектов классификации по уровню технологической интенсивности. Содержательно и сравнительно исследованы Международная стандартная отраслевая классификация видов экономической деятельности (International Standard Industrial Classification – ISIC) и Международная стандартная торговая классификация (Standard International Trade Classification – SITC), разработанные Статистическим подразделением Организации Объединённых Наций (UNSD), Гармонизированная система описания и кодирования товаров (Harmonized Commodity Description and Coding System – HS), разработанная Всемирной таможенной организацией (WCO), а также классификация экспортной продукции обрабатывающей промышленности по уровню технологической интенсивности, предложенная С. Лаллом.



Раскрыта методологическая сопоставимость указанных международных классификаторов с Общегосударственным классификатором видов экономической деятельности Республики Узбекистан (ОКЭД/IFUT) и показаны возможности оценки технологической структуры обрабатывающей промышленности. Обоснована значимость применения данных методологических подходов для повышения конкурентоспособности национальной экономики. Статья имеет научно-практическое значение для оценки эффективности промышленной политики, разработки государственных программ развития высокотехнологичных отраслей и совершенствования экспортно-ориентированной модели экономического роста.

Ключевые слова: глобализация, обрабатывающая промышленность, экономический рост, конкурентоспособность, ISIC, ОКЭД, SITC, HS, технология, инновации, добавленная стоимость, научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы (НИОКР), экспорт.

KIRISH

Sanoat inqilobidan buyon kuchli ishlab chiqaradigan sanoat mamlakatlarning texnologik salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etib kelinadi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqaradigan sanoat bandlikni ta'minlash, innovatsiyalarni rivojlantirish, xalqaro savdoni kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda texnik-texnologik taraqqiyotni jadallashtirishda muhim strategik tarmoq hisoblanadi. So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda bandlik tarkibida xizmat ko'rsatish sohasi ulushi ortib borayotgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan davlatlarda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va jahon iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashuv jarayonida ishlab chiqaradigan sanoatning lokomotiv tarmoq sifatidagi roli yanada mustahkamlanib bormoqda.

Globalashuv va xalqaro raqobatning keskinlashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash ko'p jihatdan yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Iqtisodiyotni raqobatdosh qilish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, sanoat tarmoqlarini texnologik transformatsiya qilish mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Yangi texnologik bosqichga o'tish va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo'yicha sanoatni rivojlantirish dasturini boshlaymiz. Bunda kelgusi besh yilda sanoatda qo'shilgan qiymatni hozirgi 36,5 milliard dollardan kamida 60 milliard dollarga yetkazishni (1,6 barobar o'sish); yuqori va o'rtadan yuqori texnologiyali tarmoqlardagi mahsulotlar hajmini 2,5 barobar oshirishni marra sifatida belgilaymiz. Bunga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida 2026-yilda 52 milliard dollarlik 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start beriladi" [1].

Mazkur vazifalarni amalga oshirish, strategik davlat dasturlarini izchil ijro etish hamda sanoat siyosati samaradorligini baholash jarayonida xalqaro tasniflagichlar asosida milliy sanoat tarmoqlarini texnologik jihatdan keng qamrovli va tizimli tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, tarkibiy o'zgarishlar dinamikasi hamda qiyosiy tahlilini amalga oshirishda ishonchli statistik ma'lumotlar muhim o'rin tutadi. Ushbu ma'lumotlarni tizimlashtirish va yagona metodologik yondashuvni ta'minlashda xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan tasniflagichlardan foydalaniladi. Globalashuv sharoitida mazkur tasniflash tizimlari iqtisodiy jarayonlarni obyektiv tavsiflash, ilmiy tadqiqotlar olib borish va milliy hamda xalqaro darajadagi iqtisodiy tahlillar sifatini oshirishda samarali instrument sifatida xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqaradigan sanoatning iqtisodiyotdagi o'rni, ahamiyati hamda uning tasniflanishi masalalari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

N. Kaldor tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat "iqtisodiy o'sishning lokomotivi" sifatida baholangan. "Kaldor qonunlari" deb nom olgan gipotezalarda ishlab chiqaradigan sanoatda mehnat unumdorligining boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori sur'atlarda oshishi, mazkur tarmoqning multiplikativ samaradorlikka ega ekani hamda undagi o'sish boshqa sektorlar mehnat unumdorligining ortishiga ham turtki berishi ilgari suriladi [3]. Ushbu nazariy yondashuv sanoatning iqtisodiy o'sishdagi yetakchi rolini asoslashda muhim ilmiy poydevor hisoblanadi.

S. Lall tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqaradigan sanoat eksport mahsulotlarini texnologik intensivlik mezonlariga ko'ra tasniflash tizimi ham mazkur yo'nalishdagi muhim ilmiy ishlardan biridir. Ushbu tasnifga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat eksport mahsulotlari yuqori texnologiyali, o'rta texnologiyali hamda quyi texnologiyali guruhlarga ajratiladi [4]. Mazkur yondashuv mamlakatlarning eksport tarkibi va texnologik darajasini qiyosiy baholash imkonini beradi.

Petek va Shanli tomonidan Turkiyaning 2003–2018-yillardagi ishlab chiqaradigan sanoat sektorida yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar texnologik mezonlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra,



Turkiya ishlab chiqaradigan sanoat eksporti asosan quyi texnologiyali, o'рта quyi texnologiyali va o'рта yuqori texnologiyali mahsulotlarga tayanishi aniqlangan. Mualliflar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (ITTKI) yo'naltiriladigan xarajatlarni oshirish hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaganlar [5].

Avji, Uysal va Tashchi (2016) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda Turkiya ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi ISIC Rev.3 tasnifi asosida quyi, o'рта quyi, o'рта yuqori va yuqori texnologiyali guruhlariga ajratilgan holda o'rganilgan. Tadqiqot natijalari Turkiya sanoatida texnologik tarkib bo'yicha chuqur tarkibiy transformatsiya yetarli darajada amalga oshmaganini ko'rsatgan. Shuningdek, Turkiya eksport tarkibida quyi va o'рта quyi texnologiyali mahsulotlar bo'yicha raqobat ustunligi mavjudligi, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining umumiy eksportdagi ulushi esa taxminan 2 foiz atrofida ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, yuqori va o'рта yuqori texnologiyali mahsulotlarda importga yuqori darajadagi bog'liqlik mavjudligi muhim xulosalardan biri sifatida ko'rsatilgan [6].

Ishlab chiqaradigan sanoat va uning tasniflanishi masalalari yuzasidan mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Iqtisodchi olim A. Ortiqov sanoatning milliy iqtisodiyotdagi roli, tarkibiy muammolari, mahsulot sifati hamda raqobatbardoshlik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Mazkur izlanishlarda sanoat tarmog'ining iqtisodiy mohiyati, uslubiy asoslari hamda sanoat sohasida yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar tahlil qilingan [7].

Shuningdek, N. Holmatov sanoatlashish jarayonining mohiyati va qonuniyatlari, sanoatda tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari hamda milliy ishlab chiqarishning sanoatlashish darajasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Muallif tomonidan sanoatlashish jarayonini jadallashtirish omillari yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [8].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar ishlab chiqaradigan sanoatning iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikdagi muhim rolini tasdiqlaydi hamda texnologik intensivlik asosida tasniflash milliy sanoat tarkibini chuqur baholashda samarali metodologik vosita ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro tasniflagichlar va milliy tasnif tizimlari o'rtasidagi metodologik muvofiqlikni kompleks tahlil qilish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o'rganish, taqqosiy tahlil, tarkibiy tahlil, tasniflash va guruhlash usullaridan samarali foydalanildi. Mazkur maqolada ishlab chiqaradigan sanoat sektorini texnologik intensivlik mezonlari asosida tasniflashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo'limi (United Nations Statistics Division – UNSD) tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro sanoat standart tasnifi (International Standard Industrial Classification – ISIC) hamda Xalqaro savdo standart tasnifi (Standard International Trade Classification – SITC), shuningdek S. Lall tomonidan taklif etilgan ishlab chiqaradigan sanoat eksport mahsulotlarini texnologik intensivligiga ko'ra guruhlash metodologiyasi o'rganildi va qiyosiy tahlil qilindi.

Maqolada yuqorida qayd etilgan tasniflagichlar asosida quyidagi yo'nalishlarda tahlillar amalga oshirildi:

- ISIC tasniflash tizimi va "Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi" (IFUT) o'rtasidagi metodologik muvofiqlik asosida milliy ishlab chiqaradigan sanoatning tarmoq tarkibi texnologiya darajasiga ko'ra tasniflandi;

- SITC tasniflash tizimi hamda S. Lall tomonidan ishlab chiqilgan eksport mahsulotlarini texnologik intensivligiga ko'ra guruhlash metodologiyasi asosida ishlab chiqaradigan sanoat eksport tovarlari tarkibi texnologik darajalar kesimida tahlil qilindi;

- milliy iqtisodiyotning barqaror xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda mazkur tasniflagichlardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati baholandi.

Shu tariqa, maqolada ishlab chiqaradigan sanoatning tasniflanishi turli metodologik yondashuvlar asosida kompleks tarzda tahlil qilindi. Mazkur tasniflash tizimlaridan milliy sanoatning yuqori texnologiyali tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish, sanoat siyosatini takomillashtirish hamda eksport tarkibini modernizatsiya qilish jarayonlarida foydalanishning o'ziga xos jihatlari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoatlashgan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, mehnat unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va tashqi savdoni kengaytirishda ishlab chiqaradigan sanoat sektori asosiy drayver vazifasini bajargan. Iqtisodiyotda ishlab chiqaradigan sanoatning tutgan o'rni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, tarmoqning tarkibiy tuzilishi milliy taraqqiyot jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.



Ishlab chiqaradigan sanoat qo'shilgan qiymat yaratish, bandlikni ta'minlash va tashqi savdo hajmi jihatidan sanoat tarmoqlari ichida yetakchi va dinamik sektor hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) hamda innovatsiyalarning salmoqli qismi aynan ushbu tarmoqda amalga oshiriladi [9].

Iqtisodchi olim N. Kaldor ishlab chiqaradigan sanoatni iqtisodiy o'sishning "lokomotivi" sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, mazkur tarmoq iqtisodiyotda ijobiy tashqi samaralarni yuzaga keltiradi. Ya'ni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi o'sish nafaqat ushbu sektor doirasida, balki boshqa tarmoqlarda ham mehnat unumdorligining oshishiga va natijada umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashishiga olib keladi [3].

Hozirgi sharoitda ishlab chiqaradigan sanoat bandlik, investitsiya, eksport, innovatsiya va ITTKI faoliyatining asosiy manbalaridan biri sifatida iqtisodiyot uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ishlab chiqaradigan sanoatdagi o'sish dastlab qishloq xo'jaligi sektoridagi mavjud talab hisobiga, keyinchalik esa eksportni kengaytirish orqali yuz beradi. Sanoat mahsulotlari eksportining jadal o'sishi iqtisodiyotda nisbatan past unumdorlikka ega bo'lgan tarmoqlardan sanoat tarmog'iga ishchi kuchi migratsiyasini tezlashtiradi. Bu jarayon mehnat unumdorligining umumiy o'sishiga va iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining jadallashishiga xizmat qiladi. Shuningdek, sanoatning rivojlanishi qo'shimcha bandlik yaratish va mamlakatning tashqi savdodagi ulushini oshirish imkonini beradi.

Sanoatlashgan mamlakatlarda texnologik rivojlanish barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim determinantiga aylangan. Har qanday mamlakat rivojlanish bosqichlarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida quyi texnologiyali tarmoqlardan o'rta va yuqori texnologiyali tarmoqlarga o'tish jarayonlari yuz beradi [10]. Mazkur transformatsiya milliy sanoatning texnologik darajasini oshirish hamda global qo'shilgan qiymat zanjirlarida yuqoriroq pog'onalarni egallash imkonini yaratadi.

Iqtisodiyot sektorlarini tasniflash ishlab chiqarish faoliyati, mahsulot turi va tashqi savdodagi ishtirok kabi turli mezonlar asosida amalga oshiriladi. Tasniflash jarayoni iqtisodiy faoliyatlarni o'xshash xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratish orqali xalqaro qiyosiy tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tasniflash mamlakatning qaysi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashganligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro sanoat standart tasnifi (International Standard Industrial Classification – ISIC) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo'limi (UNSD) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, jahon mamlakatlari uchun tavsiyaviy xarakterga ega iqtisodiy faoliyatlar tasniflagichi hisoblanadi. ISIC tasniflagichining asosiy vazifasi iqtisodiy faoliyatlarni tizimli ravishda guruhlarga ajratish hamda xalqaro miqyosda qiyosiy tahlillar o'tkazish uchun yagona statistik asos yaratishdan iboratdir. Mazkur tasniflagichda ishlab chiqaradigan sanoat alohida yirik sektor sifatida ajratilib, u tarkibiy jihatdan ixtisoslashgan kichik sohalarga bo'linadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va yangi faoliyat turlarining shakllanishi inobatga olingan holda ISIC tasniflash tizimi muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilib kelinmoqda. ISIC tasniflash tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlari quyidagicha:

- ISIC – ilk nashri 1948-yilda qabul qilingan;
- ISIC Rev.1 – 1958-yil;
- ISIC Rev.2 – 1968-yil;
- ISIC Rev.3 – 1990-yil;
- ISIC Rev.3.1 – 2002-yil;
- ISIC Rev.4 – 2008-yil (amaldagi versiya) [11].

Xalqaro sanoat standart tasnifiga ko'ra sanoat sektori ishlab chiqaradigan sanoat, qazib oluvchi (undirma) sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsionerlashtirilgan havo ta'minoti, suv ta'minoti hamda qurilish sohasini o'z ichiga oladi.

Tashqi savdo tasniflagichlari xalqaro tashkilotlar tomonidan tashqi savdo statistikasini yuritish, qayta ishlash va xalqaro miqyosda qiyosiy tahlillarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqiladi.

Bunday tasniflagichlar mamlakatlar o'rtasidagi tovar aylanmasini monitoring qilish, tashqi savdo munosabatlarining tarkibiy xususiyatlarini aniqlash, savdo siyosatlarini baholash va asoslashda muhim tahliliy vosita hisoblanadi. Mazkur maqsadlarda jahon amaliyotda keng qo'llaniladigan asosiy xalqaro tasniflagichlardan biri Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika Byurosi (UNSD) tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro Savdo Standarti Tasnifi (Standard International Trade Classification-SITC) tashqi savdo statistikasini tizimlashtirish va xalqaro qiyosiy tahlillarni amalga oshirishda asosiy standart hisoblanadi. SITC tasniflash tizimi bir necha bor qayta tekshiruvlardan o'tkazilgan: [11]

- SITC Rev.1 – 1950-yil;
- SITC Rev.2 – 1975-yil;
- SITC Rev.3 – 1986-yil;
- SITC Rev.4 – 2006-yilda e'lon qilingan.

Boshqa bir xalqaro tasniflagich HS (Harmonized Commodity Description and Coding System) Jahon Bojxona Tashkiloti (World Customs Organization – WCO) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, xalqaro savdoda



ayirboshlanadigan tovarlarni tasniflash va kodlashtirishda universal standart hisoblanadi. HS tashqi savdo statistikasini yuritish, bojxona tariflari va savdo siyosatini shakllantirishda asosiy vosita sifatida qo'llaniladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat eksport mahsulotlarini texnologik intensivligiga ko'ra tasniflashda iqtisodchi olim S.Lall tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuv qo'llaniladi. Ushbu uslubiyat eksport tovarlarini Xalqaro Savdo Standarti Tasnifi (SITC) asosida quyi, o'rta va yuqori texnologiyali guruhlariga ajratishga imkon beradi. Ishlab chiqaradigan sanoat eksport mahsulotlarini texnologik intensivligiga ko'ra guruhlash SITC Rev.3 tasnifiga muvofiq tovar kodlari asosida amalga oshiriladi. [4] (2-jadval)

1-jadval. Ishlab chiqaradigan sanoat tarmoq tarkibining texnologiya darajasiga ko'ra tasniflanishi¹

t/r	Texnologiya darajasi (guruhi)	Ishlab chiqaradigan sanoat quyi tarmoqlari	IFUT ga ko'ra raqami
1	Yuqori texnologiya	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	21
		Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	26
2	O'rta -yuqori texnologiya	Elektr uskunalar ishlab chiqarish	27
		Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	28
		Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	29
		Boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarish	30
		Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	20
3	O'rta- quyi texnologiya	Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	19
		Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	22
		Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	23
		Metallurgiya sanoati	24
		Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	25
		Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	33
4	Quyi texnologiya	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	10
		Ichimliklar ishlab chiqarish	11
		Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	12
		To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	13
		Kiyim ishlab chiqarish	14
		Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	15
		Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	16
		Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	17
		Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	18
		Mebel ishlab chiqarish	31
		Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	32

S.Lall tomonidan ilgari surilgan tasniflagichga ko'ra [4]:

tekstil matolari, tayyor kiyim-kechak, bosh kiyimlar, poyabzallar, teri va teri mahsulotlari va boshqalar quyi texnologiyali mahsulotlar guruhining LT1: tekstil va tayyor kiyim-kechaklar subguruhida; kulolchilik, oddiy metall parchalar, konstruksiyalar, mebellar, zargarlik buyumlari, o'yinchoqlar va boshqalar LT2: boshqa quyi texnologiyali mahsulotlar subguruhida hisobga olinadi.

Tashqi savdo tasniflagichlari xalqaro tashkilotlar tomonidan tashqi savdo statistikasini yuritish, qayta ishlash hamda xalqaro miqyosda qiyosiy tahlillarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqiladi.

1 Muallif ishlanmasi. Manba: Classification of Manufacturing Industries Based on Technologi Intensity, ISIC Rev.4, OECD-2016.oecd.org., O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2016 yildagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tansniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 275-son qarori.



Bunday tasniflagichlar mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini monitoring qilish, tashqi savdo munosabatlarining tarkibiy xususiyatlarini aniqlash, savdo siyosatini baholash va asoslashda muhim tahliliy vosita hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan asosiy xalqaro tasniflagichlardan biri Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika bo'limi (UNSD) tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro savdo standart tasnifi (Standard International Trade Classification – SITC) hisoblanadi. SITC tashqi savdo statistikasini tizimlashtirish va mamlakatlar o'rtasida qiyosiy tahlillarni amalga oshirish uchun asosiy standart vazifasini bajaradi.

SITC tasniflash tizimi bir necha bor qayta ko'rib chiqilgan:

- SITC Rev.1 – 1950-yil;
- SITC Rev.2 – 1975-yil;
- SITC Rev.3 – 1986-yil;
- SITC Rev.4 – 2006-yilda e'lon qilingan [11].

Yana bir muhim xalqaro tasniflagich – HS (Harmonized Commodity Description and Coding System) bo'lib, u Jahon Bojxona Tashkiloti (World Customs Organization – WCO) tomonidan ishlab chiqilgan. HS tizimi xalqaro savdoda ayirboshlanadigan tovarlarni tasniflash va kodlashtirishning universal standartidir. Mazkur tizim tashqi savdo statistikasini yuritish, bojxona tariflarini belgilash hamda savdo siyosatini shakllantirishda asosiy vosita sifatida qo'llaniladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat eksport mahsulotlarini texnologik intensivligiga ko'ra tasniflashda iqtisodchi olim S. Lall tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuv keng qo'llaniladi. Ushbu uslubiyat eksport tovarlarini SITC tasnifi asosida quyi, o'rta va yuqori texnologiyali guruhlariga ajratish imkonini beradi. Ishlab chiqaradigan sanoat eksport mahsulotlarini texnologik intensivlik darajasiga ko'ra guruhlash SITC Rev.3 tasnifiga muvofiq tovar kodlari asosida amalga oshiriladi [4] (2-jadval).

2-jadval. Ishlab chiqaradigan sanoat eksport tovarlari tarkibining texnologiya darajasiga ko'ra tasniflanishi²

Texnologik tasniflash guruhlari	Subguruhlar nomi	Gruhlarda ishlab chiqariladigan mahsulot turlari.	SITC Rev.3 ga ko'ra sektor kodlari
Quyi texnologiyali mahsulotlar (Low technology manufactures)	LT 1: tekstil va tayyor kiyim kechaklar tekstil matolari	tayyor kiyim-kechak, bosh kiyimlar, poyabzallar, teri va teri mahsulotlari va boshqalar.	611,612,613,651,652,654,655,656,657,658,659,831,842,843,844,845,846,848,851.
	LT 2: boshqa quyi texnologiyali mahsulotlar	kulolchilik, oddiy metall parchalar, konstruksiyalar, mebellar, zargarlik buyumlari, o'yinchoqlar va boshqalar.	642,665,666,673,674,675,676,691,692,693,694,695,696,697,699,821,893,894,895,897,898,899.
O'rta texnologiyali mahsulotlar (Medium technology manufactures)	MT 1: o'rta texnologiya: avtomobilsozlik sektori	yengil avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari, tijorat transport vositalari, mototsikllar va ularning ehtiyot qismlari.	781,782,783,784,785.
	MT 2: o'rta texnologiya: jarayonli sanoat tarmoqlari	synetik tolalar, kimyoviy moddalar va bo'yoqlar, plastmassalar, temir, quvurlar, trubalar va boshqalar.	266,267,512,513,533,553,554,562,572,582,583,591,598,671,672,786,791,882.
	MT 3: o'rta texnologiya: muhandislik sanoat tarmoqlari	dvigatellar, sanoat mashina va mexanizmlari, nasoslar, soatlar va boshqalar	711,713,714,721,722,723,724,725,726,727,728,737,741,742,743,744,745,749,762,763,772,773,775,793,812,872,873,884,885.
Yuqori texnologiyali mahsulotlar (High-technology manufactures)	HT1: elektr va elektronika mahsulotlari	ofis, ma'lumotlarni qayta ishlash va telekommunikatsiya uskunalari, televizorlar, tranzistorlar, turbinalar, energiya ishlab chiqaruvchi jihozlar	716,718,751,752,759,761,764,771,774,776,778.
	HT2: boshqa yuqori texnologiyali mahsulotlar	farmatsevtika, kosmik jihozlar, optik va o'lchov uskunalari, kameralar.	524,541,712,792,871,874,881.

S. Lall tomonidan taklif etilgan tasniflash tizimiga ko'ra [4]:

– tekstil matolari, tayyor kiyim-kechaklar, bosh kiyimlar, poyabzallar, teri va teri mahsulotlari hamda shunga o'xshash mahsulotlar quyi texnologiyali mahsulotlar guruhining LT1 (Low Technology 1): tekstil va tayyor kiyim-kechaklar subguruhiga kiritiladi;

2 Muallif ishlanmasi. Manba: Lall, S. (2003). «Industrial Success and Failure in a Globalizing World». QEH Working Paper Series, 102: 1-26.



- kulolchilik buyumlari, oddiy metall konstruksiyalar va buyumlar, mebel, zargarlik buyumlari, o'yinchoqlar va boshqa shunga o'xshash mahsulotlar esa LT2 (Low Technology 2): boshqa quyi texnologiyali mahsulotlar subguruhida hisobga olinadi.

Mazkur tasniflash yondashuvi eksport tarkibini texnologik daraja kesimida baholash, milliy sanoatning texnologik transformatsiya darajasini aniqlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishlarni belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu guruhlardagi mahsulotlar, asosan, takomillashmagan va an'anaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqariladi. Natijada, mazkur tarmoqlarda sifat raqobatiga nisbatan narx raqobati ustunlik qiladi. Shu bilan birga, tarmoqlararo raqobatda ishchi kuchi xarajatlari raqobatbardoshlikka ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

O'rta texnologiyali mahsulotlar guruhi quyidagi subguruhlariga ajratiladi:

- MT1 – avtomobilsozlik sektori: yengil avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari, tijorat transport vositalari, mototsikllar hamda ularning ehtiyot qismlari;
- MT2 – jarayonli sanoat tarmoqlari: sintetik tolalar, kimyoviy moddalar va bo'yoqlar, plastmassa mahsulotlari, temir, quvurlar va boshqa metall mahsulotlar;
- MT3 – muhandislik sanoat tarmoqlari: dvigatellar, sanoat mashinalari va mexanizmlar, nasoslar, soatlar va boshqa mexanik qurilmalar.

Mazkur guruh tarkibiga o'rta darajadagi murakkab texnika va texnologiyalarni joriy etishni, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik (ITTKI) faoliyatini amalga oshirishni, malakali ishchi kuchini jalb etishni hamda ishlab chiqarish jarayonlarini uzoq muddat davomida o'zlashtirishni talab qiluvchi tarmoqlar kiradi.

Yuqori texnologiyali mahsulotlar guruhi esa quyidagi subguruhlariga ajratiladi:

- HT1 – elektr va elektronika mahsulotlari: ofis texnikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash va telekommunikatsiya uskunalari, televizorlar, tranzistorlar, turbinalar, energiya ishlab chiqaruvchi jihozlar va boshqa yuqori texnologiyali qurilmalar;
- HT2 – boshqa yuqori texnologiyali mahsulotlar: farmatsevtika mahsulotlari, kosmik jihozlar, optik va o'lchov uskunalari, kameralar va shu kabi murakkab texnologiyali mahsulotlar.

Yuqori texnologiyali mahsulotlar ilg'or va tez yangilanib boruvchi texnologiyalar asosida ishlab chiqariladi. Ularni ishlab chiqarish jarayonida yuqori darajadagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari amalga oshiriladi, mahsulotlarni loyihalash va dizayn jarayonlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu guruhga, asosan, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar kiradi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksporti milliy iqtisodiyotning raqobat ustunligini ta'minlashda va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday mahsulotlarni eksport qiluvchi mamlakatlar xalqaro bozorda yetakchi mavqega ega bo'ladi va eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli yuqori sur'atdagi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi [12].

Xalqaro savdoda ishlab chiqaradigan sanoatning o'rnini uning eksport ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liqdir. Eksportga asoslangan iqtisodiy o'sishning barqarorligi ko'p jihatdan ishlab chiqaradigan sanoat raqobatbardoshligini oshirish orqali ta'minlanadi. Shu bilan birga, sanoat eksportining texnologik tarkibi barqaror iqtisodiy o'sish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi [13].

Texnologik taraqqiyotni ta'minlashda, avvalo, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik yutuqlarni amaliyotga joriy etishda asosiy drayver tarmoq vazifasini bajaradi. Texnologik innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshiradi, bozorlar kengayishiga va daromadlarning ortishiga xizmat qiladi, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlaydi hamda resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Umuman olganda, iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik tarkibi ularning mehnat unumdorligi darajasini, bandlikni oshirish salohiyatini va milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini belgilaydi. Tarmoqlarni texnologik intensivlik mezonlari asosida baholash milliy iqtisodiyotda bandlik va ta'lim siyosatini takomillashtirish, sanoat siyosatini shakllantirish hamda boshqa strategik davlat dasturlarini amalga oshirish jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi takomillashgan ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga ega bo'lishi va tarmoq ichida chuqur sifat o'zgarishlarini amalga oshirishi bilan uzviy bog'liqdir. Ishlab chiqaradigan sanoatning iqtisodiyotdagi o'rnini, ahamiyati hamda uning tasniflanishini tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

- ishlab chiqaradigan sanoat tarmoq tuzilishiga ko'ra qo'shilgan qiymat yaratish, bandlikni ta'minlash va tashqi savdo hajmi jihatidan sanoat tarmoqlari ichida yetakchi hamda dinamik sektor hisoblanadi;



- ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oddiy va an'anaviy texnologiyalardan foydalanadigan tarmoqlardan murakkab, texnologiya sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarga o'tish tendensiyasi kuzatiladi;
- ishlab chiqaradigan sanoat bir xil tuzilishga ega emas, shu sababli uning tarmoq tarkibini texnologik intensivlik darajasiga ko'ra guruhlash va baholash muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy-metodologik tahlillar asosida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqaradigan sanoatni texnologik modernizatsiya qilish, tarkibiy transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Texnologik intensivlikni baholash metodologiyasini takomillashtirish va muntazam monitoring tizimini joriy etish. Ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlarini texnologik darajasi bo'yicha baholashning yagona va tizimli metodikasini ishlab chiqish hamda muntazam monitoring mexanizmini yo'lga qo'yish zarur. Bu yuqori va o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqlarni davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Eksport tarkibini sifat jihatdan diversifikatsiya qilish. S. Lall tomonidan taklif etilgan texnologik tasniflash metodologiyasini milliy tashqi savdo tahlili amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv eksport tarkibida quyi texnologiyali mahsulotlar ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish, o'rta va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini rag'batlantirish bo'yicha aniq indikatorlar va maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash imkonini beradi.

3. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini (ITTKI) moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Ishlab chiqaradigan sanoatda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida sanoat korxonalari, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida klasterlar hamda texnologik platformalarni rivojlantirish, innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

4. Mehnat bozori va ta'lim siyosati o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish. Texnologik intensivlikni oshirish maqsadida texnik-muhandislik va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, dual ta'lim tizimini keng joriy etish hamda ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarning izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi O'zbekiston ishlab chiqaradigan sanoatini yuqori texnologiyali, innovatsion va raqobatbardosh tarmoqqa aylantirishga, milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga hamda aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr. – URL: <https://president.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori. – URL: <https://lex.uz>
3. Kaldor N. (1961). Capital Accumulation and Economic Growth. In: Lutz F.A., Hague D.C. (eds.), The Theory of Capital. – New York: St. Martin's Press.
4. Lall S. (2003). Industrial Success and Failure in a Globalizing World. QEH Working Paper Series, No. 102, pp. 1–26.
5. Petek A., Şanlı O. (2018). Makro ekonomik değişkenler açısından Türkiye'de sanayi sektörünün gelişimi ve imalat sanayinin teknolojik yapısı. Adnan Menderes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 5(3), 185–203.
6. Avcı M., Uysal S., Taşçı R. (2016). Türk imalat sanayinin teknolojik yapısı üzerine bir değerlendirme. Sosyal ve Beşerî Bilimler Araştırmaları Dergisi, 17(36), 49–66.
7. Ortiqov A. (2009). Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.
8. Holmatov N. (2003). Milliy ishlab chiqarishni sanoatlashtirishning nazariy asoslari va qonuniyatlari. Dissertatsiya. – Toshkent.
9. Rodrik D. (2006). Industrial Development: Stylized Facts and Policies. Industrial Development for the 21st Century. UN DESA Publication, pp. 1–25.
10. Gürlesel F. (2009). Global Sanayi Eğilimleri ve Türkiye İçin Değerlendirme. – İstanbul: İstanbul Sanayi Odası Yayını, pp. 25–29.
11. Ciğeroğlu E.T. (2023). İmalat sanayi sektöründe Türkiye'nin AB'ye ihracatının teknoloji yoğunluğuna göre analizi: panel veri yöntemi. Doktora tezi. – Pamukkale Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, ss. 103–110.
12. Yıldız H., Özdamar G. (2014). Reel Döviz Kuru-Dış Ticaret İlişkisi: Türkiye İmalat Sanayisi Sektörleri Üzerine Bir İnceleme (2005–2012). Çankırı Karatekin Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 5(2), 187–204.
13. Fagerberg J. (1997). Competitiveness, Scale and R&D. In: Fagerberg J., Hansson P., Lundberg L., Melchior A. (eds.), Technology and International Trade. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>